

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING "MILLIY KINEMATOGRAFIYANI YANADA
RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA" 2017-YIL 7-AVGUSTDAGI PQ-3176-SONLI
QARORIGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTISHLAR KIRITISH TO'G'RISIDA**

[Ko'chirma]

Milliy kino san'atini yanada rivojlantirish, mahalliy kino va video mahsulotlarini ko'paytirish hamda keng ommaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish, aholining, ayniqsa yoshlarning bo'sh vaqtidan oqilona foydalanish maqsadida:

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 7-avgustdagি PQ-3176-sonli **qaroriga 1-ilovaga** muvofiq qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosi D.A. Qo'chqorov va "O'zbekkino" Milliy agentligi bosh direktori F.Sh. Zokirov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2017-yil 27-sentabr,
PQ-3292-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2017-yil 27-
sentabrdagi PQ-3292-sonli **qaroriga**
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-
tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 7-avgustdagи PQ-3176-sonli qaroriga kiritiladigan**

QO'SHIMCHA VA O'ZGARTISHLAR

1. **4-** va **5-bandlar** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"4. "O'zbekkino" Milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining 2017 — 2019-yillarda respublika hududlarida zamonaviy kinoteatrлar (keyingi o'rinnarda — kinoteatrлar) tarmog'ini barpo etish (qurish) to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

5. "O'zbekkino" Milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, "O'zshaharsozlik LITI" DUK bilan birgalikda texnik topshiriq va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini har tomonlama o'rganish asosida 2018-yilning 1-yanvarigacha maydonlarida zamonaviy kinozallar (2-qavat) va savdo-ko'ngilochar obyektlar (1-qavat) joylashtirilishini nazarda tutgan holda, kinoteatrлarning namunaviy loyihalarini ishlab chiqsin.".

2. **11-bandda:**

ikkinci xatboshi kuyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan birgalikda ikki oy muddatda tegishli tashabbuskorlar — tadbirkorlik subyektlari tomonidan kinoteatrлarni barpo etish (qurish), ularni jihozlash va faoliyatini boshlashning aniq muddatlarini nazarda tutgan holda kinoteatrлar tarmog'ini 2017 — 2019-yillarda respublika hududlari bo'yicha barpo etish (qurish) jadvallarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin";

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"yagona repertuar siyosatini olib borish maqsadida umum respublika kino prokati konsepsiyasini bir oy muddatda ishlab chiqsin va 2018-2019-yillarda amalga oshirsin";